QASHQADARYO VILOYATI
SHAHRISABZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

181302, Shahrisabz shahri, Fusunkor ko‘chasi 86-uy, tel/faks: 75-522-02-25

2023 - yil 28 - dekabr 235-4-67-Q/23 Shahrisabz tuman hokimligi

Tumanda 2024 yilda transport vositalarini majburiy texnik ko’rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo’l harakati xavfsizligi to’g’risida”gi Qonunining 17-moddasi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko’rikdan o’tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o’rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2022 yilda majburiy texnik ko’rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo’lgan transport vositalari majburiy texnik ko’rikdan o’tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko’rikdan o’tkazish bo’yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo’lgan transport vositalarining 2024 yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari qo’yidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko’rikdan o’tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart- 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentyabr- 31 oktyabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar – 31-dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro’yxatidan o’tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo’yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko’rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’ektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stantsiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko’rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko’rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2021-yil 22-dekabrdagi 245-4-67-Q/21-son “Tumanda 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari A.Qurbonov zimmasiga yuklatilsin.

Shahrisabz tuman hokimi **S.A.Xasanov**

Shahrisabz tuman hokimining
2023-yil 28-dekabrdagi
235-4-67-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Shahrisabz tumani hududida 2024-yil avtomototransport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish komissiyasi

T A R K I B I

Komissiya raisi:

Sh.Otaqulov	-tuman IIB avtomototransport vositalarining holati, ulardan foydalanish normalari va qoidalariga rioya etishini nazorat qilish guruhi inspektori kapitan, komissiya raisi

A’zolari:

R.Djalolov	tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
X.Qarshiyev boshlig‘i	-tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi
	-Viloyat sinov va sertifikatlash markazi-dan tumanga biriktirilgan vakil

Shahrisabz tuman hokimining
2023-yil 28-dekabrdagi
235-4-67-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Shahrisabz tumanida mavjud bo‘lgan tashkilot, korxona va avtoxo‘jaliklarga tegishli avtomototransport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Avtoxo‘jalik va tashkilotlar nomi	Joylashgan manzili	Ko‘rikdan o‘tadigan kun	Vaqti	Ko‘rikdan o‘tadigan joyi	Transport vositasi soni
1	214-MASHINALASHGAN TEMIR YO‘L STANSIYASI	TANXOZ MFY	1.03	10.00	Avtosaroyi	6
2	"NEGMATOV SHOXJAXON INATULLAYEVICH" FERMER XO’JALIGI	MUMINOBOD MFY	1.03	14.00	Avtosaroyi	1
3	"TILOVKOBILOV G’OLIB BAXROMOVICH" FERMER XO’JALIGI	DUXCHI MFY	2.03	8.00	Avtosaroyi	1
4	AZIYA TRANS OPTIMAL MCHJ	TUDAMAYDON MFY	2.03	16.00	Avtosaroyi	2
5	SUG'DIYONAG'ISHT MCHJ	TUDAMAYDON MFY	6.03	8.00	Avtosaroyi	3
6	ABDUVASI O’GLI XASAN	SOY QISHLOG’I	6.03	14.00	Avtosaroyi	2
7	ABDUKAMOLOV SHAMSHOD ATAVULLOYEVICH FERMER XO’JALIGI	ZANGI QISHLOG’I	6.03	16.00	Avtosaroyi	1
8	ABDULLAYEV KODIR CHULLIYEVICH XUSUSIY KORXONASI	SHAMATON QISHLOG’I	7.03	8.00	Avtosaroyi	1
9	AYFB	TANXOZ KURGONI	7.03	16.00	Avtosaroyi	1
10	AZIMOV USMON MCHJ	ESKI DAXYAK QISHLOG’I	9.03	8.00	Avtosaroyi	1
11	AL ZAFAR ABDULLO NABIRASI FERMER XO’JALIGI	TANXOZ MFY	9.03	10.00	Avtosaroyi	1
12	ALOVIDDIN SHAMSITDIN O’GLI FERMER XO’JALIGI	CHORSHANBE QISHLOG’I	9.03	14.00	Avtosaroyi	2
13	KESH AVTO SIFAT MCHJ	DUXCHI QISHLOG’I	9.03	16.00	Avtosaroyi	4
14	ANVAR XUSUSIY KORXONASI	QISHLOG’I CHORQI	12.03	8.00	Avtosaroyi	1
15	AXMAD BOBO XUSUSIY ICH VA SAVDO FIRMASI	KUTCHI MFY	12.03	14.00	Avtosaroyi	1
16	AXMEDOVA RAJAB AXMEDOVNA DEHQON XO‘JALIGI	XITOY MFY KAMAR QISHLOG’I	13.03	8.00	Avtosaroyi	1
17	BAGIRA MCHJ	YANGIBOG QISHLOG’I	13.03	10.00	Avtosaroyi	1
18	BALXA ARIK SAXOVATI NOMLI MCHJ MTP	KELDIXAYOT QISHLOG’I	13.03	14.00	Avtosaroyi	1
19	BEK JAMOA KORXONASI	USTOY QISHLOG’I	13.03	16.00	Avtosaroyi	1
20	KATOD TRANS MCHJ	QUTCHI QISHLOG’I	14.03	10.00	Avtosaroyi	2
21	BUNEDBEK ABDUSALOM O’GLI FERMER XO’JALIGI	SHAMATON QISHLOG’I	15.03	8.00	Avtosaroyi	1
22	GAYRATJON KODIROV DEXKON XO’JALIGI	CHORSHANBE QISHLOG’I	15.03	14.00	Avtosaroyi	1
23	GELON JIXOZI SERVIS	GELON QISHLOG’I	15.03	16.00	Avtosaroyi	1
24	GOLIBJON O’GLI DILSHOD FIRMASI	CHORSHANBE QISHLOG’I	16.03	8.00	Avtosaroyi	1
25	SHAXRISABZ TUMAN MAJBURIY BYUROSI	IPAK YO‘LI	16.3	9.00	Avtosaroyi	1
26	GUZOR O’GLI TOSHKANJON FERMER XO’JALIGI	IRGOVUL QISHLOG’I	16.03	14.00	Avtosaroyi	2
27	DJUMAEVA FAYOZA XUSUSIY KORXONASI	AVAZMALIK QISHLOG’I	16.03	16.00	Avtosaroyi	1
28	DILSHODA MCHJ	MIRAKI MFY	19.03	8.00	Avtosaroyi	3
29	DUXCHI JAHON KUVONCHI FERMER XO‘JALIGI	XALKOBOD QISHLOG’I	19.03	14.00	Avtosaroyi	4
30	JAMOLOV ISMOILXON JA’FAROVICH FERMER XO’JALIGI	XUJABOG QISHLOG’I	20.03	8.00	Avtosaroyi	1
31	JASUR FAYZ CHORVA XUSUSIY KORXONASI	DUXCHI QISHLOG’I	20.03	14.00	Avtosaroyi	1
32	JASUR GAYRATJONOVICHXUSUSIYKORXONA	SHAMATON QISHLOG’I	20.03	16.00	Avtosaroyi	1
33	ABF AUTO DRIVING SCHOOL MCHJ	MIRAKI QURG‘ONI	20.03	15.00	Avtosaroyi	1
34	JURABEK MCHJ	MIRAKI MFY	22.03	14.00	Avtosaroyi	1
35	JURABEK RAJABOVICH FERMER XO’JALIGI	DUXCHI MFY	22.03	16.00	Avtosaroyi	1
36	JX P SHERBOBOEV	MUMINOBOD QISHLOG’I	23.03	8.00	Avtosaroyi	1
37	JX UZBEKISTON	KELDIXAYOT QISHLOG’I	23.03	10.00	Avtosaroyi	1
38	SHAXRISABZ TUMAN BANDLIKKA KO‘MAKLASHISH MARKAZI	SHAXRISABZ 21	23.03	10.00	Avtosaroyi	1
39	ZAFAR MCHJ	AVAZMALIK QISHLOG’I	23.03	16.00	Avtosaroyi	1
40	IBRAGIMOV SHOVKAT UBAYDULLAEVICH FIRMASI	CHORSHANBE QISHLOG’I	26.03	8.00	Avtosaroyi	1
41	ISLOM OTA XUSUSIY SAVDO FERMASI	UCH UYLI	26.03	10.00	Avtosaroyi	1
42	ISHONCH KAFOLAT-ADOLAT-MCHJ	O’RTAKURGON QISHLOG’I	26.03	16.00	Avtosaroyi	1
43	KAMAR ISHLAB CHIQARISH	SAKSANPAKA QISHLOG’I	27.03	8.00	Avtosaroyi	1
44	KARDIO KESH FARM XUSUSIY KORXONASI	QUTCHI QISHLOG’I	27.03	16.00	Avtosaroyi	1
45	KARIMOV SHOXRUX XAZRATOVICH FERMER XO’JALIGI	XALQOBOD QISHLOG’I	28.03	8.00	Avtosaroyi	1
46	KESH AVTO TRANS MCHJ	ALMATI QISHLOG’I	28.03	14.00	Avtosaroyi	18

47	OOO SULAYMON IBODULLO O'G'LI	YANGIQISHLOQ QISHLOG'I	28.03	14.03	Avtosaroyi	24
48	KESH OYDIN YUL MCHJ	TEPAR QISHLOG'I	2.04	8.00	Avtosaroyi	2
49	KESH ORIGINAL SERVIS MCHJ	YANGIOBOD QISHLOG'I	2.04	10.00	Avtosaroyi	1
50	KESHKELAJAKMONTAJ-MCHJ	CHAQAR QISHLOG'I	3.04	14.00	Avtosaroyi	1
51	KO'RGAZMALI QUROL KOO	J.ELBOEV J.X	4.04	14.00	Avtosaroyi	1
52	QURILISH SAVDO INJENERING - MCHJ	QUSHKANOT QISHLOG'I	4.04	16.00	Avtosaroyi	1
53	MALXAM FAYZ DILXUSH XUSUSIY KORXONASI	XITOY MFY SHURJI QISHLOG'I	5.04	14.00	Avtosaroyi	1
54	MARDONOV SHODMON XUSUSIY KORXONASI	MIRAKI MFY	6.04	8.00	Avtosaroyi	1
55	MIRSAID GOLD STAR XUSUSIY KORXONASI	YANGI QISHLOG'I	9.04	8.00	Avtosaroyi	1
56	MUXAMMADIEV SHONAZAR ABDUMUMINOVICH FERMER XO'JALIGI	NONDEK QISHLOG'I	9.04	14.00	Avtosaroyi	1
57	NEGMATOV SHOXJAXON INATULLAEVICH FERMER XO'JALIGI	UCH UYLI QISHLOG'I	10.04	8.00	Avtosaroyi	1
58	NORUDA INVEST MCHJ	TEPAR QISHLOG'I	10.04	10.00	Avtosaroyi	1
59	ODIL NOMLI KO'P TARMOKLI	PAXTAKOR QISHLOG'I	11.04	8.00	Avtosaroyi	1
60	ODIL POLVON RAIS BOBO O'GLI FERMER XO'JALIGI	KUTCHI QISHLOG'I	11.04	10.00	Avtosaroyi	2
61	OK YUL TATRA YUK MCHJ	SHANBE QISHLOG'I	11.04	14.00	Avtosaroyi	5
62	OLIMJON MUXAMMADI O'GLI FIRMASI	QA'NI QISHLOG'I	13.04	8.00	Avtosaroyi	2
63	OLTIN GUGURT ELEGANT	ANDAY QISHLOG'I	13.04	14.00	Avtosaroyi	1
64	OCHILOV FURKAT - OILAVIY KORXONASI	XO'JAXUROSAN QISHLOG'I	16.04	8.00	Avtosaroyi	1
65	P.SHERBOBOEV J.X	MUMINOBOD QISHLOG'I	16.04	10.00	Avtosaroyi	3
66	PENZA SHIRINLIKLARI OILAVIY KORXONASI	TEPAR QISHLOG'I	16.04	14.00	Avtosaroyi	1
67	PRIMOV IBROXIM ABDUMANNONOVICH FERMER XO'JALIGI	SOYBUYI QISHLOG'I	16.04	16.00	Avtosaroyi	1
68	RAVON YUL SARI-MCHJ	TEPAR QISHLOG'I	17.04	8.00	Avtosaroyi	1
69	RAJABOV BARAT RAJABOVICH FERMER XO'JALIGI	XITOY MFY OMMOG'ON QISHLOG'I	17.04	10.00	Avtosaroyi	1
70	RAXIMOV AZAMBOY -DEXKON XO'JALIGI	AVAZMALIK QISHLOG'I	17.04	14.00	Avtosaroyi	1
71	RAXMAT BOBO O'GLI NAR	YOZMON QISHLOG'I	17.04	16.00	Avtosaroyi	1
72	RAXMATOV AKMAL ABDURAZZOKOVICH MCHJ	SAKSONKAPA QISHLOG'I	18.04	8.00	Avtosaroyi	1
73	SARDOR TRANS YUL KURILISH XUSUSIY KORXONASI	KATTA USTOY QISHLOG'I	18.04	14.00	Avtosaroyi	2
74	SUGDIENA MCHJ	CHORSHANBE QURGONI	19.04	8.00	Avtosaroyi	3
75	TADBIRKOR ISHLAB CHIQARISH VA SAVDO FIRMASI	CHORSHANBE QURGONI	19.04	14.00	Avtosaroyi	1
76	TILOVKOBILOV G'OLIB BAXROMOVICH FERMER XO'JALIGI	DUXCHI QISHLOG'I	20.04	8.00	Avtosaroyi	2
77	TOSHPULAT BOBO NABIRASI MARJONA FERMER	DUXCHI QISHLOG'I	20.04	10.00	Avtosaroyi	1
78	TURA KUZIEVICH-XUSUSIY KORXONASI	QUTCHI QISHLOG'I	20.04	14.00	Avtosaroyi	1
79	TURAEV MIROBID ZARIFOVICH FERMER XO'JALIGI	MUMINOBOD QISHLOG'I	20.04	16.00	Avtosaroyi	1
80	TURON MCHJ	MIRAKI MFY	23.04	8.00	Avtosaroyi	2
81	ULUGBEK J.X	ULUGBEK J.X	23.04	10.00	Avtosaroyi	1
82	ULUGBEK NOM YOG'OCHNI KAYTA ISHLASH XUSUSIY KORXONASI	TANXOZ MFY	23.04	14.00	Avtosaroyi	2
83	UMIROV TURGUN DEHQON XO'JALIGI	XO'JABOG QISHLOG'I	24.04	8.00	Avtosaroyi	1
84	FAROGAT-AP SAVDO FIRMASI	MIRAKI MFY	25.04	10.00	Avtosaroyi	1
85	XOJI AKBAR TUXTAMURODBOBO FERMER XO'JALIGI	QUTCHI QISHLOG'I	30.04	8.00	Avtosaroyi	1
86	XUJALIK XISOBIDAGI KORXONA	MIRAKI MFY	30.04	10.00	Avtosaroyi	1
87	XURRAMOV ZIKRILLO TURSUNMURODOVICH FERMER XO'JALIGI	SHANBE QURGONI	1.05	8.00	Avtosaroyi	1
88	CHORSHANBE O'GLI RAYMBOBO FERMER XO'JALIGI	IRGOVUL QISHLOG'I	1.05	14.00	Avtosaroyi	1
89	SHAMSHER AL-AKBAR FERMER XO'JALIGI	SHANBE QISHLOG'I	2.05	8.00	Avtosaroyi	2
90	SHAXLO ISHLAB CHIKARISH FIRMASI	CHORSHANBE QISHLOG'I	2.05	10.00	Avtosaroyi	3
91	SHAXRISABZ 15-SONLI MAKTAB INTERNAT	MIRAKI MFY	2.05	14.00	Avtosaroyi	1
92	SHAXRISABZ BUNEDKORI MCHJ	PASTQURGON QISHLOG'I	3.05	8.00	Avtosaroyi	3
93	SHAXRISABZ GRANT GROUP - XUSUSIY KORXONASI	QUTCHI QISHLOG'I	3.05	10.00	Avtosaroyi	1
94	SHAXRISABZ KAPITAL – MCHJ	SHAMATON QISHLOG'I	3.05	16.00	Avtosaroyi	1
95	SHAXRISABZ KESH OYDIN YUL AVTO XIZMAT	TEPAR QISHLOG'I	4.05	8.00	Avtosaroyi	1
96	SHAXRISABZ KUMUSH MOMO FERMER XO'JALIGI	IRGOVUL QISHLOG'I	4.05	10.00	Avtosaroyi	1
97	SHAXRISABZ OKOVASUV KORXONASI	QUM QURGONI	7.05	8.00	Avtosaroyi	1
98	SHAXRISABZ RAXMONOV MAXMUD SHARIPOVICH	QURGONDEKTOR K	7.05	14.00	Avtosaroyi	1
99	SHAXRISABZ TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	CHORSHANBE QURGONI	10.05	8.00	Avtosaroyi	5
100	SHAXRISABZ UROZ MCHJ	XOJIMAYDON QISHLOG'I	8.05	16.00	Avtosaroyi	2
101	SHAXRISABZ CHORVADOR FERMER XO'JALIGI	KATTA NOKI QISHLOG'I	10.05	14.00	Avtosaroyi	1

102	SHAXRISABZ YASHIL DIER	SAROY QISHLOG'I	10.05	16.00	Avtosaroyi	1
103	SHAXRISABZ=ASKARKURILISHINVEST MIKT-MCHJ	XO'JAXUROSAN QISHLOG'I	11.05	8.00	Avtosaroyi	1
104	BOLTA FOZILOV J.X	SHAMATON QISHLOG'I	11.05	10.00	Avtosaroyi	1
105	SHAXRISABZ=MARVARID TA'MIR KORXONASI	DUXCHI QISHLOG'I	11.05	14.00	Avtosaroyi	1
106	SHAXRISABZ MEHNAT DEHQON FERMER XO'JALIGI	MUMINOBOD QISHLOG'I	11.05	16.00	Avtosaroyi	1
107	SHAXRISABZ CHORVADOR FERMER XO'JALIGI	KATTA NOQI QISHLOG'I	14.05	8.00	Avtosaroyi	1
108	ERGASHEV UTKIR URALOV FERMER XO'JALIGI	SAROY QISHLOG'I	15.05	10.00	Avtosaroyi	2
109	ERKIN OTA ISHLAB CHIKAR FIRMASI	NOQI QISHLOG'I	15.05	16.00	Avtosaroyi	1
110	YUSUPOV BEKZOD SOXIBOVICH- FERMER XO'JALIGI	SHANBE QISHLOG'I	16.05	8.00	Avtosaroyi	2
111	KATOD TRANS MCHJ	CHORSHANBE QISHLOG'I	17.05	8.00	Avtosaroyi	4
112	AVTO KESH GLOBUS MCHJ	YANGIXAYOT QISHLOG'I	17.05	8.00	Avtosaroyi	3